



O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi maktabgacha ta'lim agentligi

\_\_\_\_\_ hujjatligi  
maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi qarorgohi  
\_\_\_\_\_ maktabgacha va  
maktab ta'limi bo'limi \_\_\_\_\_ fuqarodagi  
\_\_\_\_\_ -maktabgacha ta'lim tashkiloti  
katta guruh boshqaruvchisi

\_\_\_\_\_ ning  
"Ilk qadam" o'qituvchisi sifatida

"Yoshlarning 1000 soz"  
mayida tashkillangan

**FANOLLIYAT**

**ISHLANMASI**

(Avgust oyining 4-haftasi)



veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)

# Hujjat Word variantda beriladi.

Zokirjon Admin bilan

**+99890-530-88-18 nomerga murojaat qilishingiz jek456 izlab telegramga yozishingiz yoki shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz so'raladi.**

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

**Katta guruhlarga avgust oyi 4-hafta**

**“Yoz o'tdi soz” mavzusida markazlar bo'yicha tayyorlangan faoliyat ishlanmani to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.**




**Narxi: 5 ming so'm**

Telegram kanalimiz:

**@maktabgacha\_tt**

**To'lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Nabiyev Zokirjon plastik egasi**



## DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

**To'liq holda olganingizdan so'ng:**

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA  
HIYONAT QILMANG.**

## **Guruh: Katta guruhlar uchun**

**Oy mavzusi: QUVNOQ VA SOG`LOM BOLALAR**

**Hafta mavzusi: Yoz o`tdi soz**

Faoliyatning maqsadi:

Ta`limiy: tarbiyalanuvchilarni she`rning mazmunini tushunishga o`rgatish, yoz fasli haqidagi bilimlarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: bolalarni tabiatni sevishga, asrashga va uning ne`matlarini qadrlashga o`rgatish.

Rivojlantiruvchi: kichkintoylarning yoz fasli va tabiati haqidagi tasavvurlarini kengaytirish. Mantiqiy fikrlash malakasini rivojlantirish va ijodkorlikka o`rgatish.

Faoliyat uslublari: aqliy hujum, kichik guruhlardagi ishlash, "Baliq ovi", "Boshqaruvchini top" o`yinlari.


Faoliyat jihozi: rangli qog`ozlar, marker, mavzuga oid rasmlar, akvarium, markazlarda ishlatiladigan zarur materiallar.

Faoliyatning boshlanishi:

Tashkiliy qism: salomlashish mashqi (ingliz tilida ham).

**TARBIYACHI:** – Bolalar, keling salomlashib olamiz. Buni qo`llarimizdan boshlaymiz.

- Salom mening qo`llarim! (qarsak)
- Hello, my hands!
- Salom mening oyoqlarim! (tap-tap)
- Hello, my feet!
- Salom mening yuzlarim! (oh-oh)
- Hello, my faces!
- Salom mening tishlarim! (tars-tars)



- Hello, my teeth!
- Salom mening burunlarim! (bum-bum)
- Hello, my noses!
- Salom mening o‘rtoqlarim!
- Hello, my friends!

(Bolalar bir-birlarining qo‘llarini ushlab tepaga ko‘taradilar).

TARBIYACHI: – Bolajonlar, hozir men sizga topishmoq aytaman, javobini toping-chi?

Quyosh rosa qizdirar,  
Cho‘milish tanga yoqar.

Qani toping bolalar,  
Bu qaysi fasl bo‘lar?

BOLALAR: – Yoz.

TARBIYACHI: – Barakalla, bolajonlar, to‘g‘ri aytdingiz.  
Aqliy hujum.

TARBIYACHI: – Yoz fasli qaysi fasldan keyin keladi.

1-Bola: – Bahor faslidan keyin yoz fasli bolalar.

TARBIYACHI: — Qani ayting-chi, yozda qanday vaqtimizda qanday ichimliklar ichamiz?

2-Bola: — Suv, meva sharbatlari, ayran.

TARBIYACHI: — Shirintoylarim yozda qanday joylarda cho‘milasizlar?

3-BOLA: — Basseyn, ariqlarda.

TARBIYACHI: – Barakalla, men sizlarga bolalar shoiri Shukur Sa‘dullaning “Yoz” she‘riini o‘qib beraman.

Keldi ko‘klam kabi soz,

Bizlar sevgan issiq yoz.

Ekin o‘sdi yerlarda,

Bug‘doy pishdi qirlar.

Qip-qizardi olchaklar.

Uzar yosh bolachaklar.

Poliz to‘la bodiring,

Bog‘bon tez uzib bering.

Sabr qiling siz andak,

So‘yib beray handalak.

Quyosh ko‘kda nur sochar,

Yangi dunyolar ochar.

O‘rik yetilib pishar,

Yerlarga to‘p-to‘p tushar.

Olma, anor, nok, bodom,

To‘ymaydi yeb hech odam.



Yoz bo‘yi bizda har xil,  
Meva pishar xilma-xil.

She‘rda yoz faslining issiq ekanligi, dalalarda bug‘doy, polizlarda bodring, bog‘larda nok, olma, olcha, bodom kabi mevalar g‘arq pishishi aytilgan.

Lug‘at ishi:

Ko‘klam — yashil degani, ekin – o‘t-o‘simliklar o‘sadigan yer, andak – ozgina deb tushuntiriladi.

“Baliq ovi” o‘yini. O‘yinning maqsadi bolalarning lug‘at boyligini oshirish, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish.

O‘yin jihozlari: akvarium, magnitli qarmoq, mevalar, savat va tashqariga chiqqan bola predmetlarni aks ettiruvchi rasmlar.

Bolalar navbat bilan rasmdagi narsalarning nomini aytib, (ingiz, olma, bodom va boshqalar ham) u haqda ma‘lumot beradilar.

“Boshqaruvchini top”

tetiklashtiruvchi mashq

O‘yin qoidasi. Bolalar doira

bo‘lib turadilar. Ulardan biri

tashqariga chiqadi. Qolgan

bolalar ichidan bitta

boshqaruvchi tayinlanadi,

boshqaruvchi bir necha

harakatlarni bajartirib turadi.

Shundan so‘ng tashqariga

chiqqan bola chaqiriladi. U

harakatlarni kuzatib, o‘yinni

kim boshqarayotganligini aytish kerak. Agar topsa, boshqaruvchi

tashqariga chiqadi, yarmi boshqaruvchi tayinlanadi, topolmasa jarima

belgilanadi. Jarima o‘lgan bola o‘yin yoki she‘r aytib berishi kerak.

TARBIYACHI: — Bolalardan o‘zingiz xohlagan markazlarga borib

o‘tirishingizni so‘rayman. Pazandachilik markazida yoz faslida yaxshi

ko‘rib iste‘mol qiladigan ayron tayyorlanib, unga pomidor, bodring

qo‘shiladi. San‘at markazida yozgi mevalarni turli usullarda: sham, ip,

“Rangin kaftchalar” texnologiyasi yordamida chizish. Qurilish markazida

cho‘milish havzasi maketini yasash taklif etiladi. Har bir markaz o‘z

taqdimotini o‘tkazadi. Shundan so‘ng kichkintoylar bilimini

mustahkamlash uchun savollar beriladi.

1. Yozda qaysi mevalar pishadi?
2. Poliz ekinlaridan qaysilarini bilasiz?
3. Ko‘klam deganda nimani tushunasiz?



**MA'NUNGA**

4. Andak so‘zining ma‘nosini ayting?
5. Yozda bolalar qayerda cho‘miladilar?
6. Yozda qanday ichimliklar ichiladi?

Savollarga to‘g‘ri javob bergan bolalar rag‘batlantiriladi.

### ***Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish***

Mavzu: Qo‘g‘irchoq teatrini sahnalashtirish (bolalar ixtiyoriga ko‘ra)

Maqsad: bolalar o‘zini turli rollarda sinab qo‘g‘irchoq teatrini sahnalashtiradilar. Kerakli jihozlar: qo‘g‘irchoq teatri anjomlari, qo‘g‘irchoq kiyimlari, chiroyli ko‘ylaklar kiygan qo‘g‘irchoqlar.

Faoliyatning borishi:

1 Qo‘g‘irchoq teatri haqida suhbat.

Qo‘g‘irchoq teatri mavzusini tanlash.

Qo‘g‘irchoq teatri namoyishi.

Bolalar ishlari muhokamasi va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: bolalar uchun yaratilgan spektakl tomosha qilish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: aktyorlik sifatlarining tarbiyalanishi, ijroda o‘zini erkin tutishi



### ***Til va nutq***

Mavzu: “Bu qachon bo‘ladi?” ta’limiy o‘yini

Maqsad: bolalar yil fasllarining o‘ziga xos belgilari to‘g‘risidagi tasavvurlari mustahkamlanadi. Pishgan mevalarni xom mevadan farqlaydi, mevalar qayerda tezroq pishishini (daraxt tagidami, soyadami, yalanglikdami yoki oftobdami) va uning sababi natijalarini bilib

oladilar.

Kerakli jihozlar: yil fasllarining o'ziga xos belgilari, bog' va poliz, dala ekinlari tasvirlangan rasmlari kartochkalar.

Faoliyatning borishi:

Rasmlarni tomosha qilish.

:“Bu qachon bo'ladi?” ta'limiy o'yini

Bolalar rasimga qarab faslning tartibini, o'ziga xos xususiyatlarini so'zlab beradilar. Polizda qachon qovun-tarvuzlar, pomidor, bolgar qalampiri, bodringlar pishadi? Qachon olma, nok, behi, olcha, gilos, olxo'ri, anjir, o'rik pishadi? va hokazo savollarga rasmlar asosida javob beradilar. Pishgan mevalarni xom mevadani farqlaydilar, mevalar qanday tezroq pishishini (soyadami yoki quyosh nuridami) va u qachon pishadi natijalarini aytadilar.

Qachon quyosh zarrin nurlarini tarqatadi? Qachon qulay havo qaldirg'ochlar uyalaridan uchib chiqadilar va havoda uchib yurishni o'z qiladilar?

Qachon quyosh to'q qizil yoki oltin rangga o'zgaradi? Qachon oy va yulduzlar chiqadi?

O'yinni yakunlash va muhokama qilish.

Rag'batlantirish.

Qo'shimcha: she'r yoki topishmoqlar aytilishi. Alohida e'tibor qaratiladi: bolalar nutqini o'zgarishlari va o'z zamonlari qo'shimchalarini to'g'ri qo'llay olishi.



## ***San'at***

**Mavzu:** Yoz manzarasi

**Maqsad:** bolalar rasm chizishning bostirib chizish usuli orqali yoz manzarasini tasvirlay oladilar.

**Kerakli jihozlar:** yoz manzarasi tasvirlangan rasmlar, oq qog'oz, pergament qog'oz, bo'yoqlar, mo'yqalam, yozgi barglar, turli xildagi gullar, suv idishi, salfetka.

**Faoliyatning borishi:**

Yoz manzarasi mavzusidagi rasmlarni ko'rish.

Bostirib chizish usuli chizmasi bilan tanishish.

Bolalar ijodiy ishi.

Bolalar ishlarini muhokama qilish va rag'batlantirish.

**Qo'shimcha:** paxtali cho'pchalar usulini qo'llash mumkin.

**Alohida e'tibor qaratiladi:** bolalarda ijodiy tafakkulning rivojlanishi.



## ***Qurish va konstruksiyalash, matematika markazi***

**Mavzu:** Ekologik yo'lakcha

**Maqsad:** bolalar ekologik yo'lakchani qurishda kubiklar va turli konstruktorlardan maqsadli foydalanadilar.

**Kerakli jihozlar:** kubiklar, geometrik shakl, manzarali o'simliklar to'plami, ekologik yo'lakchani tasviri tushirilgan suratlar.

**Faoliyatning borishi:**

Namuna va ekologik yo'lakcha mavzusi bo'yicha suratlarni ko'rib chiqish.



Ekologik yo‘lakcha qurilishini rejalashtirish.

Ekologik yo‘lakchani konstruksiyalash.

Bolalar ishlarini muhokama qilish va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: tarbiyachi bolalarga o‘z kompozitsiyalarini mayda o‘yinchoqlar (archalar, hayvonlar, qushlar, gullar, haykalchalar va shu kabilar) bilan bezashni taklif etishi mumkin.

Alohida e‘tibor qaratiladi: bolalarning jamoa bo‘lib ishlashlari.

### **Fan va tabiat**

Mavzu: Sport maydoni uchun chim tayyorlash

Maqsad: bolalar chim o‘simligi bilan tanishadilar, o‘simliklarning o‘rnatilishida suv, tuprok va havoning ahamiyatini biladilar.

Kerakli jihozlar: ekish uchun anjomlar, fartuk, bolalar belkasi, g‘it, tuproq, urug‘, suv idish, kuzatish daftari.

Faoliyatning borishi:

Chim o‘simligini ekish uchun maxsus idish tayyorlash.

Chimni ekish uchun yorug‘lik, suv, havo, tuproqning o‘zaro ta‘sir zarurligi va urug‘ni ekishning ketma-ketligi haqida tarbiyachi bolalarga ma‘lumoti.

Bolalarning mustaqil faoliyati.

Chimning o‘rishini kuzatish daftari bilan o‘zgarishlarini kuzatib borish.

Alohida e‘tibor qaratiladi: o‘simliklarning o‘rnatilishidagi qimmatli lozimlik kabi tushunchalar.



Yakuniy qism: raqamli.

